

## HAYOTGA QARSHI JINOYATLAR VA MAZKUR JINOYATLARNI OLDINI OLISH CHORALARI

**Abdug'ofarov Abbas Ravshan o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar  
profilaktikasi faoliyati kafedrasida o'qituvchisi, kapitan*

**O'roqov Jasur Rustamaliyevich**

*IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi  
faoliyati kafedrasida o'qituvchisi, kapitan*

**Zamonov Xojiakbar Shuhrat o'g'li**

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi 308-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismiga asosan hayotga qarshi jinoyatlar tushunchasi va ularning mohiyati, turlari va elementlari, oldini olish va profilakta qilish faoliyati atroflicha yoritilgan*

**Annotation:** *This article covers in detail the concept of crimes against life and their essence, types and elements, Prevention and profiling activities according to a special part of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan*

**Kalit so'zlar:** *Hayotga qarshi jinoyatlar, jinoyat, ayb, qasd, ehtiyotsizlik, kuchli ruhiy hayajonlanish, zaruriy mudofaa, jinoyatchilikni oldini olish, jinoiy soha*

Jinoyat salbiy g'ayrihuquqiy hodisa sifatida doimo inson rivojining barcha davrlarida hamroh bo'lib kelganiga guvoh bo'lish mumkin. Dastlab jinoyat va jazo bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan, kategoriyalar sifatida qabul qilingan. Jazo turli tarixiy davrlarda qo'rqitishdan tortib tuzatish va tarbiyalash maqsadlarini ko'zlagan holda jinoyatga qarshi kurashning samarali vositasi sifatida qo'llanilgan. Turli davrlarda jinoyat insonlar tomonidan madaniyatning erishilgan huquqiy rivojlanish darajasiga qarab turlicha talqin etilgan. Jamiyat rivojlanishi bilan bu hodisalarga oid g'oyalar, qarashlar, nazariyalar ishlab chiqila boshlagan. Odamlar jinoyat va jazo choralari normativ hujjatlarida aks ettirish uchun jinoyat va jazoning maqbul tuzilishi va ta'riflarini ishlab chiqishga harakat qilganlar. Davlat va huquq ijodkorligi faoliyati kuchaygani, normativ hujjatlar va ularni ijro<sup>2</sup> etishning huquqiy normalari takomillashgani sari jinoyat va jazo choralari ham o'zgarib bordi.

Davlatning eng muhim vazifalaridan biri inson haqida g'amxo'rlik qilishdir. Binobarin O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson omili, uning shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlangan. Konstitutsiya normalarida har qanday holatdan qat'i nazar, shaxsning qonuniy huquq va manfaatlari kafolatlangan va himoya qilingan.

Hayot qarshi jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismida berilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

-Qasddan odam o'ldirish;

<sup>2</sup>[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=FhCrKfsAAAAJ&citation\\_for\\_view=FhCrKfsAAAAJ:u5HHmVD\\_u08C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FhCrKfsAAAAJ&citation_for_view=FhCrKfsAAAAJ:u5HHmVD_u08C)

- Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish;
- Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi ;
- Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish;
- Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab qolishning zarur choralarini chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish;
- Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish;
- O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish;
- O'zini o'zi o'ldirishga undash.

Odam o'ldirish - qasddan boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilish. Qasddan odam o'ldirish jinoyati haqidagi ishlar bo'yicha jinoyatni qonunining to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash juda muhim, chunki ushbu jinoyatni aybni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etganlik uchun qonunda favqulodda jazo chorasini – umrbod ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan Jinoyat huquqida shaxsga qarshi qaratilgan eng og'ir jinoyatlardan biri bo'lib, fuqarolar hayoti xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz hisoblanadi. Moddiy tarkibli jinoyatlar sirasiga kiradi. Odam o'ldirgan aybdorning harakati yoki harakatsizligi tufayli odam o'lgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida javobgarlik belgilangan odam o'ldirish turlarini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

-qonunda nazarda tutilgan yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarsiz odam o'ldirish (o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi);

-aybni og'irlashtiruvchi holatlarda odam o'ldirish (ikki yoki undan ortiq shaxsni; homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni; ojiz ahvolda ekanligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsni; xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning qarindoshini; boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda; ommaviy tartibsizliklar jarayonida; o'ta shafqatsizlik bilan o'ldirish va boshqa o'n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi);

-aybni yengillashtiruvchi holatlarda (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish; zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish; ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish).

Qasddan odam o'ldirish jinoyati ham to'g'ri, ham egri qasd bilan sodir etilishi mumkin. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etayotganda aybdor jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish qasdi bilan harakat qiladi, qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetadi, o'lim yuz berishini istaydi (to'g'ri qasd) yoki bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi (egri qasd). Qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasd bilan sodir etilishi mumkin, chunki, bunda aybdor o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, jabrlanuvchining o'limiga ko'zi yetgan va uning o'limini istagan bo'ladi, biroq o'lim aybdorga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra (jabrlanuvchining faol qarshiligi, boshqa shaxslarning aralashuvi, jabrlanuvchiga o'z vaqtida tibbiy yordam

ko'rsatilganligi va h.k tufayli) yuz bermaydi. Shu sababli, aybdorning jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish niyatida harakat qilgan-qilmaganligini, o'lim yuz berishini istagan-istamaganligini va qanday holatlar istalgan natija yuz berishiga to'sqinlik qilganligini aniqlash zarur.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatidan farqlash uchun aybdorning qasdi nimaga qaratilganligini, uning o'z harakatlari oqibati, ya'ni jabrlanuvchining o'limiga nisbatan sub'ektiv munosabatini inobatga olish darkor. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etayotganda aybdor shaxsni hayotdan mahrum qilish niyatida harakat qiladi, badanga og'ir shikast yetkazish shaxsning o'limiga sabab bo'lgan hollarda esa, o'limga nisbatan uning aybi ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi.

Aybdorning qasdi nimaga qaratilganligi to'g'risidagi masalani hal etishda qilmishning barcha holatlari majmuidan kelib chiqilishi, xususan, jinoyatni sodir etish usuli va quroli, tan jarohatlari soni, xususiyati va o'rni (masalan, odam hayoti uchun muhim a'zolarining jarohatlanganligi), jinoiy harakatlar to'xtashi sabablari, shuningdek, aybdor va jabrlanuvchining jinoyat sodir etilgunga qadar bo'lgan fe'l-atvori, o'zaro munosabatlari, aybdorning jinoyat sodir etilgandan keyingi harakatlari xususiyati e'tiborga olinishi lozim.

Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi - onaning o'z chaqalog'ini tug'ish vaqtida yoki tug'ilishi hamon qasddan o'ldirishi.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish - tajovuzning xususiyati hamda xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa-zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 37-moddasi). Himoya tajovuz xarakteri shuningdek xavfliligiga muvofiq bo'lishi lozim hisoblanadi. Lekin, himoyalananayotgan shaxs, <sup>3</sup>odatda, har doim ham tajovuzning aniq tushuna olmaydi shu bilan bir qatorda jinoyatning oldini olish uchun kerakli bo'lgan zararni yetkazadi. Shu sababli zaruriy mudofaa holatida bo'lgan shaxs yetkazgan zarar ko'rsatilgan tajovuzga nisbatan kam, teng yoki ko'p bo'lishi ehtimoli mavjud bo'ladi. Biroq, bu holat qilmishni zaruriy mudofaa deb topilmaslikni bildirmaydi. Negaki kelib chiqadigan zararni qaytarish emas, balki ijtimoiy manfaatlarni himoyalashdan iborat hisoblanadi.

Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish - jabrlanuvchi tomonidan qilingan g'ayriqonuniy zo'rlik yoki og'ir haqorat, shuningdek uning boshqa g'ayriqonuniy harakatlari tufayli to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish. Ushbu normami imtiyozli tarkibdagi jinoyat sifatida o'rnatilishida nimalarga e'tibor qaratish lozim, onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishini qasddan odam o'ldirishning boshqa turlaridan ajratib turuvchi xususiyatlari nimada degan masalada xilma-xil qarashlarni ilgari suradi. Bu masalada zamonaviy jinoiy-huquqiy ta'limotlar ham yagona fikrga ega emas. Mazkur jinoyatni qaysi toifadagi qasddan odam o'ldirish jinoyati turiga kiritilishi uning ijtimoiy xavflilik darajasi va

<sup>3</sup> A.R. Abdugofarov [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=FhCrKfsAAAAJ&citation\\_for\\_view=FhCrKfsAAAAJ:u-x6o8ySG0sC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FhCrKfsAAAAJ&citation_for_view=FhCrKfsAAAAJ:u-x6o8ySG0sC)

ijtimoiy xavflilik xususiyatlarini belgilab beradi. Ayollarning tuban xulq-atvorining eng tipik ko'rinishlaridan biri-ular tomonidan o'z chaqalog'ini o'ldirish sabablari haqidagi ilmiy ishlar ham e'tiborga loyiqdir. Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi jinoyat huquqi va kriminologiya nuqtai nazaridan o'rganilib, yangi tug'ilgan chaqaloqning ona tomonidan o'ldirilishi sabablariga alohida e'tibor qaratilib, bu jinoyatga onaning onalik instinkti, ya'ni biologik xususiyatga ega emasligi sabab bo'lganligi taxmin qilinadi.

Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish - ayb shakllaridan biri. Qilmish o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik orqasida sodir etilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ana shu har ikki holatda sodir etilgan jinoyat quyidagicha ta'riflanadi: Agar jinoyatni sodir etgan shaxs o'z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo'lsa, bunday jinoyat o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilgan deb topiladi. Agar jinoyat sodir etgan shaxs o'z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasada, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa, bunday jinoyat beparvolik orqasida sodir etilgan deb topiladi

(22-modda). O'z xususiyatlariga ko'ra, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlar qonunchilik asosida aybning birmuncha xavfsiz shakli deb belgilangan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'tkazilgan islohotlar natijasida jinoyatlarning barvaqt oldini olishda yangi ish uslublari tatbiq qilinib, aholi va jamoatchilik bilan uzviy muloqot yo'lga qo'yildi, ushbu sohaga zamonaviy raqamli texnologiyalari keng joriy etildi.

Jinoyatlarning barvaqt oldini olishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik yanada kuchaytirildi. Olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar natijasida fuqarolarda jinoyatchilikka qarshi kurashish va jinoyatlarni oldini olishga daxldorlik hissi shakllandi.

Shunday qilib, bugungi kunda hayotga qarshi jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar va kelgusidagi konsepsiyalarning ishlab chiqilishi nafaqat davlat, balki fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofazasini ta'minlaydi. Statistik tadqiqotlar natijalariga ko'ra jinoyatchilik darajasining kamaygani ham amalga oshirilgan ishlar samaradorligini tasdiqlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2023 yil.
3. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Darslik. Ma'sul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov –T.: Adolat nashriyoti, 2020.

4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.  
<https://www.uzavtoyul.uz/ru/page/ozbekiston-respublikasi-qonun-hujjatlarimalumotlari-milliy-bazasi.html>
5. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. 2-Maxsus qism/M.Rustambayev.–Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021y. –744
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh\\_Sahifa](https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa)
- 7.[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=FhCrKfsAAAAJ&citation\\_for\\_view=FhCrKfsAAAAJ:u5HHmVD\\_u08C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FhCrKfsAAAAJ&citation_for_view=FhCrKfsAAAAJ:u5HHmVD_u08C)
8. Ж.Р. Ўроқов Махаллада ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш ва ўзаро ҳамкорликни мустахкамлаш.  
<https://inntechcon.uz/index.php/current/article/view/29>